

**Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida kommunikatsiyaning
roli**

O'RAZBOY KUKLANOVICH ERNIYOZOV

*TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI "IJTIMOIY
FANLAR" KAFEDRASI O'QITUVCHISI*

Kirish. Sivilizatsiya so'zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog'liq. Ushbu tushunchaning yuzaga kelishi Ma'rifatparvarlik davridagi Yevropa fani va adabiyotining yutug'idir. Ammo sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o'zlarining dunyolarini o'zgarar dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davrda sivilizatsiya so'zi bilan belgilanmasa-da, o'z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo'yganlar.

Sivilizatsiya so'zi lotincha sivilis - fuqarolikka, davlatga, shaharga taalluqli ma'nolarini anglatuvchi o'zakdan kelib chiqqan. U "silvaticus", ya'ni lotinchadan tarjima qilganda qo'pol, yovvoyi so'ziga qarshi ma'noda qo'llanilgan. Sivilizatsiya tushunchasi "madaniyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Dastlab madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo'llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o'rtasida farq paydo bo'ldi. Masalan, nemis faylasufi I.Kant bu tushunchalar o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatib o'tgan edi. Ko'pchilik faylasuflar "sivilizatsiya" deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, "madaniyat" deganda esa faqat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler "Yevropa quyoshining so'nishi" asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik- mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutgan. Ilmiy muloqotda, ommaviy axborot vositalarida va umuman kundalik turmushda

qo‘llaniladigan ibora va tushunchalar o‘zining qamrab olish doirasiga ko‘ra turli xil darajada bo‘ladi. Ba‘zi so‘zlar tor ma‘noni bersa, boshqalari juda keng ma‘noda qo‘llaniladi. Ana shu jihatdan olganda, ijtimoiy munosabatlar iborasining ko‘lami ham ancha kattadir. Zero, jamiyatda kechayotgan barcha jarayonlar, jamiyatdagi mavjud sohalar, yo‘nalishlar borki, hammasi ijtimoiy munosabatlarning ta‘sir doirasiga kiradi. Birgina fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash emas, balki boshqa sohalar, jumladan, transport, kommunikatsiya tizimlari ham ijtimoiy munosabatlarning ajralmas yo‘nalishlari hisoblanadi. Mazkur sohalar kishilik jamiyatining vujudga kelishida, rivojlanishida, umuman bugungi kun darajasida erishishida muhim rol o‘ynab kelgan. Keling, eng qadimgi, g‘orlarda yashagan ibtidoiy odamlar hayotini ko‘z oldimizga keltiraylik. Bu davrlardagi odamlar hech narsa yaratmaganlar. Tabiatdagi bor narsalardan foydalanishgan. Masalan, o‘zi avvaldan mavjud bo‘lgan g‘orlardan boshpana sifatida foydalanishgan. Tabiatdagi mevalarni, o‘t-o‘lanlarni iste‘mol qilishgan, hayvonlarni tutib yeyishgan. Buning uchun o‘z boshpanalari bo‘lgan g‘orlaridan ma‘lum masofada uzoqlashishga to‘g‘ri kelgan. Qorinlari to‘ygach g‘orlarga yana qaytib kelish lozim bo‘lgan. Ba‘zan, yo‘lni yo‘qotib adashib qolishgan ham. Lekin, bora-bora xududni yaxshi o‘zlashtirib, undagi yo‘llarni ham o‘rganishlari natijasida adashmaydigan bo‘lishgan. YA‘ni ibtidoiy odamlar tunni g‘orlarda o‘tkazishib, kunduzlari esa tashqariga chiqib kechirishgan. O‘sha xududdagi so‘qmoqlar, yo‘llar qayerga olib borishini yaxshi bilishgan. Jumladan, o‘z boshpanalaridan uzoqroq masofaga uzoqlashgan taqdirda ham, orqaga qayta olishgan, o‘z g‘orlarini bexato topib kelishgan. Xuddi mana holat insoniyat tarixidagi dastlabki yo‘l, aloqa – kommunikatsiya tizimi hisoblanadi.

Bu davrdagi ilk transport turi esa bu odamlarning o‘zi, uning oyoqlari bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz. Keyinchalik esa hayvonlardan transport vositasi sifatida foydalana boshlaganlar. Ushbu mulohazadan ko‘rinib turganidek, kommunikatsiya masalalari eng qadimiy davrlardan boshlab insoniyatga hamroh bo‘lgan. To‘g‘rirog‘i, ibtidoiy odamlarning yashab qolishida muhim rol o‘ynagan.

Kishilik tarixining keyingi rivojlanish bosqichlarida kommunikatsiyaning odamlar hayotidagi oʻrni ortsa ortdiki, aslo kamaymadi. Maʼlumki, hech narsa yoki hodisa bir xilda qolib ketmaydi. Balki, hamma narsa – hodisa abadiy oʻzgarishga mahkum etilgan. Shu qatori, terib-termachlab, poda-toʻda boʻlib yashagan odamlarning hayoti ham bir xilda qolib ketishi mumkin emas edi. Ollah tomonidan odamzotga berilgan yuksak aql-idrok tufayli uning hayot tarzi ham oʻzgarishga yuz tutdi. Jamiyatning ilk debochasi hisoblangan oila, urugʻ va qabilaga birlashdi. Muayyan axloqiy qoidalar asosida yashashni oʻrgandi. Maʼlum iqtisodiy qonuniyatlar asosida rivojlanadigan, siyosiy tartibotlar oʻrnatilgan, tegishli huquqlar berilgan yoki cheklangan shart-sharoitga koʻnib umrguzaronlik qila boshladi. Bunday tarzda yashaydigan maskan, keyinchalik jamiyat deb oldi. Aytish mumkinki, jamiyatda yashay boshlanishi odamlar hayotini haqiqatdan ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bu shunchaki, yangi bosqichgina emas, balki tubdan oʻzgargan yuqori darajadagi hayot tarzi edi. Jamiyatdagi bu hayot tarzi oʻzining mazmun-mohiyati jihatidan ibtidoiy poda davridagi kun kechirishdan keskin farq qilardi. Ochiq aytish kerakki, odamlarning ibtidoiy poda davridagi hayoti baʼzi tomonlari hayvonot dunyosiga yaqin boʻlgan. Hech qanday axloq qoidalarining yoʻqligi, tartibsiz, ommaviy nikoh, ijodkorlik, yaratuvchanlikdan yiroqlik, faqat tayyor narsalardan foydalanish, hayotda maqsad-muddaoning qoʻyilmaganligi, asosiy maqsad qorin toʻydirish, jinsiy ehtiyojni qondirish kabi nafs ehtiyojlarini qondirishdan iborat boʻlganligi va hokozalar buning yaqqol isboti boʻlgan. Xulosa qilib aytganda, ibtidoiy poda davrda yashaganlar odam boʻlib odam boʻlmagan, hayvon boʻlib hayvon boʻlmagan. Tashqi koʻrinishi hozirgi insonlarga oʻxshash boʻlgani bilan, yashash tarzi hayvoniy boʻlgan.

Ijtimoiy munosabatlarning mevasi boʻlgan jamiyatni vujudga kelishi odamlarning ana shu hayvoniylikdan qutqargan. Negaki, jamiyatda oʻrnatilgan tartibotlar hayvoniylikni inkor etib, odamiylikni targʻib etgan. Albatta, hayvoniylikni rad etib odamiylikni qabul qilish jarayoni birdaniga amalga oshib qolmagan. Buning uchun oʻn yillar, asrlar oʻtishi kerak boʻlgan. Shuni afsus bilan

qayd etib o'tishga majburiylik, oradan shuncha vaqt o'tib, minglab yillardan buyon jamiyatda yashayotganligimizga qaramasdan, odamiylikdan chekinib, hayvoniyligni afzal ko'rayotganlar oramizda uchrab turibdi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda kunora berib borilayotgan ko'z ko'rib, quloq eshitmagan noinsoniy holatlar, vaxshiyona jinoyatlar bunga yaqqol misol bo'ladi. Shukr qilamizki, bundayin kimsalarning jamiyatda ko'p emasligiga. Jamiyat bino bo'lgan ilk vaqtlardan noaxloqiy, noinsoniy illatlarga qarshi turib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida ushbu kurashda ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu bilan birga mag'lubiyatga uchralgan onlar ham bo'ldi. Lekin nima bo'lganda ham oxir-oqibatda odamiylikning ustun kelayotganligi hammamizni quvontiradi.

Jamiyatning vujudga kelishi, odamlar turmush tarzida kommunikatsiyaning mavqeyini kuchayishiga, transportga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishida va uning keyingi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Avval oila, keyin urug' va qabila bo'lib yashashni o'rgangan odamlar jamoasini avvalgiday tor xudud doirasida yashash qoniqtirmay qolgan. Endi ular atrof muhitdan o'zlariga yashash uchun qulay joy izlay boshlashgan. Shu maqsadda tevarak atrofdagi katta-katta xududlarni o'rganishgan, o'zlashtirishgan. Buning uchun yangi-yangi yo'llar, so'qmoqlar ochishgan. Qulay joy topilgach esa, shu yerda o'rnatishgan. Ushbu manzilgohlar o'rnida, vaqt o'tishi bilan shaharlar vujudga kelgan. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, qadimiy shaharlar har tomonlama maqbul bo'lgan yerda, jumladan, kommunikatsiya masalalari yechim topgan xududlarda barpo etilgan. Ana shunday qulay joyda qad rostlagan shaharlarning istiqboli ham yuksak bo'lgan. Qadimgi yunon allomasi Aflotun iborasi bilan aytganda haqiqiy shahar bu "...Odamlarning tahsinga loyiq odatlari va axloqi ro'yobga chiqishiga shart-sharoit yaratilgan, joylashgan yeri, tabiiy sharoiti qulay, ya'ni unga aholi uchun oziq-ovqat va boshqa zarur narsalarni olib kelish mumkin bo'lgan shahardir". Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, buyuk yunon allomasining bu mulohazasi to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsiyaga daxldordir. E'tibor bersangiz, aholi uchun oziq-ovqat va boshqa zarur narsalarni olib kelish mumkin bo'lgan, degan jumla qo'llanilmoqda. Zarur narsalarni olib

kelish uchun nima bo‘lishi kerak? Albatta, yo‘llar bo‘lishi kerak. Shaharni boshqa xududlar bilan bog‘lovchi yo‘llari qancha ko‘p bo‘lsa va shahar mintaqalararo yo‘l bo‘yida joylashgan bo‘lsa, shak-shubhasiz bu shahar rivojlanadi. Shunda, Aflotun aytganidek, bunday shaharlarga hayot uchun, taraqqiyot uchun kerak bo‘ladigan hamma narsalarni keltirish imkoniyati bo‘ladi. Bunday shaharlarda, hayotiy zarur bo‘lgan narsalarga tanqislik ko‘zatilmaydi. Chunki istalgan xududdan kerakli mahsulotlar peshma-pesh keltirilaverilgan. Buni isbotlash ortiqcha urinish ham shart emas. Oddiygina, tarixda mashhur bo‘lgan va hozirgi kunda ham mavjud bo‘lgan, bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan shaharlarning geografik joylashuviga, ichki va xalqaro yo‘llar silsilasida tutgan o‘rniga qarasak bas, hammasi oydinlashadi. Shuni ta’kidlash kerakki, boshqa mamlakatlarga borish-kelish yo‘llarini izlash, topish dastlab shunchaki qiziqish, ishqibozlik bilan boshlangan bo‘lsada, keyinchalik uning maqsad-muddalari o‘zgardi. Bu maqsadlar oddiylikdan murakkablikka tomon ijtimoiy munosabatlarning talabiga qarab o‘zgarib borgan. Bu jarayonda insoniyat aqlu-zakovatining mahsuli bo‘lgan ilm va fanning o‘rni katta bo‘lgan. Ilmiy ibora bilan aytganda, yo‘l – kommunikatsiyasining rivojida ssiyentizmning ya’ni mavjud barcha ijtimoiy muammolarni, jumladan kommunikatsion muammolarni hal etilishida fanning ahamiyati salmoqli bo‘lgan.

REFERENCES

1. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.
3. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVİYATLĪ AVLOD-UCHĪNCHĪ RENESSANS BUNYODKORLARĪ. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

4. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
5. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
6. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
7. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.
8. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
9. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
10. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
11. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
12. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.

13. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLĪ AVLOD-UCHĪNCHĪ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

14. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

15. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

16. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.

17. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.

18. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLĪ AVLOD-UCHĪNCHĪ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

19. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

20. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).